

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11023929>

ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM: MAQSAD VA IMKONIYATLAR

Mehriniso Sadullayevna Safarova

Buxoro viloyati Romitan tumani 29-DMTT tarbiyachisi

ABSTRACT

Developing children's thinking, forming the skills of independent and free expression of their thoughts, ensuring their physical and mental health is an important goal of preschool education. The article provides information on the current image of preschool education organizations, their goals and tasks, and the opportunities gained based on innovative activities.

Key words. Society, reform, heritage, value, style, need, behavior, purpose, gole.

ANNOTATSIYA

Bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash kabi vazifalarni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'larning muhim maqsadini belgilaydi. Maqolada maktabgacha ta'limg tashkilotlarining bugungi qiyofasi, ularning maqsad va vazifalari, innovatsion faoliyat asosida qo'lga kiritilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Jamiyat, islohot, meros, qadriyat, uslub, ehtiyoj, xulq-atvor, maqsad.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning shart-sharoitlarini va samarali tuzilmalarini yaratish, bir xil qolipdagi tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Bunda xalqning boy ma'naviy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, samarali iqtisodiy manfaat, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish

Vatanimiz taraqqiyotining muhim shartidir. Bunda ta’lim tizimining ilk bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanish nazarda tutiladi. Bu jarayonda bolada o‘qishga intilish hissi uyg‘otiladi, ular muntazam ta’lim olish jarayoniga tayyorlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom”¹da maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga alohida urg‘u berilib, maktabgacha ta’limning uzluksiz ta’lim tizimidagi asosiy o‘rni qayd etiladi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rtta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi² hamdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari quyidagi turlar bo‘yicha tashkil etilishi qonun hujjatlarida o‘z aksini topadi. Bunda umumiy turdagи maktabgacha ta’lim tashkiloti, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti, inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti va qo‘shma turdagи maktabgacha ta’lim tashkiloti.

Maktabgacha ta’lim, bola tug‘ilganidan 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifalari sifatida bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida intellektual hamda ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash maqsadi qo‘yiladi. Shuningdek, bolalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta’lim jarayoniga tayyorlash ham tarbiyachining kundalik vazifasi sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkiloti: maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standarti asosida o‘z ta’lim dasturini ishlab chiqishga, bolaning qonuniy vakillari bilan tuzilgan shartnoma asosida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturida nazarda tutilganidan tashqari qo‘srimcha pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatishga, bolaning qonuniy vakillari bilan ta’lim va tarbiya borasida hamkorlikni amalga oshirishga haqli hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya berish yuzasidan metodik resurslar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni,

¹ Maktabgacha tarbiya muassasasi to‘g‘risida NIZOM.1995-y. lex.uz

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son. lex.uz

ko'rsatma va tavsiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek, maktabgacha ta'lif tashkilotlarini loyihalashtirishda, ularni qurishda, jihozlashda va ularning faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

NATIJALAR

Ushbu maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda keng jamoatchilik: mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirot etadi. Maktabgacha ta'lif jarayonini yanada rivojlantirish uchun quyidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bunda:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni tizimli tayyorlash;
- maktabgacha ta'lifning samarali psixologik-pedagogik sharoitlarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va didaktik o'yinlar yaratish hamda ularni keng qo'llash;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lif tashkilotlarining har-xil turlari uchun turli variativ dasturlarni tanlash va qo'llash,
- maktabgacha ta'lif va tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali maslahat xizmati ko'rsatish imkoniyatlarini yaratish;
- maktabgacha ta'lif va tarbiyada sog'lomlashtirish tarmogini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalar ham maqsad qilib qo'yadi.

MUHOKAMA

Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatları va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari

bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o‘z g‘oyalarini tajribada sinab ko‘rish xoxish-istiklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e’tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddallashtirmasdan va bolani ko‘p axborot bilan chalg‘itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo‘llarini birgalashib qidirishdan iboratdir. Rivojlanish markazlaridagi ta’lim jarayonida bolalarning o‘zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarning faoliyat markazlarda mustaqil ishlashi, ularni individuallashtirishda tarbiyachi shunday amaliy ish turlarini o‘ylab topadiki, unda barcha bolaga birdek ko‘rsatma berilsa ham, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o‘z muvaffaqiyatiga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug‘ilib qolsa, topshiriq va materiallarni o‘zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

XULOSA

Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi. Tarbiyachi o‘quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagogik jamoasining o‘rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda unga mos keladigan maqsadlar qo‘yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo‘llab quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P. Yusupova. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» «O‘qituvchi» T., 1993-y.
2. O.U. Hasanboyeva. Oila pedagogikasi. T., 2007-y.
3. Y.T. Nedopekina, A.V. Nikolskaya «Maktab bo‘sag‘asida» «O‘qituvchi» T., 1971-y.